

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ISMOILOV IXTIYORJON A‘ZAMJONOVICH

**JINOYAT VA JAZO: XALQARO VA MILLIY HUQUQIY
TAJRIBALARNING IJTIMOIIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract
of Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences**

Ismoilov Ixtiyorjon A'zamjonovich

Jinoyat va jazo: xalqaro va milliy huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari.....3

Ismailov Ixtiyarjon Azamjonovich

Преступление и наказание: социально-философские особенности международного и национального правового опыта.....23

Ismailov Ikhtiyarjon Azamjonovich

Crime and punishment: socio-philosophical features of international and national legal experiences.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51



**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ISMOILOV IXTIYORJON A‘ZAMJONOVICH

**JINOYAT VA JAZO: XALQARO VA MILLIY HUQUQIY
TAJRIBALARNING IJTIMOIIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fal903 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan davlat universiteti web-sahifasi (namdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|--|
| Ilmiy rahbar: | Musayev Faxriddin Abdusattarovich falsafa fanlari doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Dexkanov Narimon Burxonjonovich siyosiy fanlari doktori(DSc), professor Matkarimova Jamila Durdiyevna falsafa fanlari doktori(DSc), professor |
| Yetakchi tashkilot: | Buxoro davlat universiteti |

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel./faks: (998-69) 228-85-02; Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 1-qavat, 101-xona)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel./faks: (998-69) 228-85-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ da tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi.)

R.T.Jo‘rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc),
professor.

Q.O.Mahkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I. Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda global ijtimoiy makonda sodir bo‘layotgan jinoyatchilikka qarshi kurash, unga nisbatan jazo tayinlashda jazoni insonparvarlashtirish, jinoyat va jazo choralarining demokratik tamoyillar asosida belgilashdagi qonunchilik normalarining gumanizatsiyalash, jamiyatda tartib va havfsizlikni ta‘minlashga doir innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa rivojlangan davlatlarda “aqli qonun chiqaruvchi jinoyat uchun jazo berish haqida emas, jinoyatlarning oldini olish haqida qayg‘urishi, tarbiyaga yo‘naltirishi, axloqni yaxshilashga xizmat qilishi” ga doir gumanistik yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda va bu boradagi isohotlarni chuqutlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Jazoni qasos olish uchun qollanmasligi prinsipi jinoyatchini tarbiyalashga qaratilgan tizimni yaratish vazifalarini ham ko‘rib chiqish, jinoyat va jazo amaliyotining gumanistik xususiyatlari, xalqaro tajribalardagi o‘zgarishlarning ahamiyati va falsafiy mazmuniga doir falsafiy tadqiqotlarni amalga oshirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoda jinoyat va jazoning ijtimoiy oqibatlarini o‘rganish, uning iqtisodiy omillarini tadqiq etishga, ishsizlik, migratsiya, qashshoqlikning jinoyatchilikni o‘sib borishiga ijtimoiy ta‘siri baholash, jamiyatdagi ijtimoiy notenglik, turli qatlamlar orasidagi jinoyatchilik va unga jazo choralarini amalga oshirishdagi ijtimoiy adolatsizlik jarayonlari, jazo mexanizmlarini yuksak axloqiy mezonlar asosida tashkil qilish, jinoyatchilikka yangicha huquqiy ta‘lim-tarbiya tizimini qaror toptirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot loyihalari va ilmiy dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, huquqiy ta‘lim nazariyasi va metodikasini takomillashtirishga doir huquqiy klinika (legal clinic)larni tashkil etish, inson huquqlarini uzluksiz o‘qitish tizimini yaratishga doir ta‘limiy-tarbiyaviy dasturlar, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda jazoni insonparvarlashtirish va tarbiyaga yo‘naltirish bo‘yicha qonun normalarini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarning implementatsiyasini kuchaytirish istiqbollari tadqiq etilishi asnosida jinoyat va jazoga bo‘yicha xalqaro va milliy huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ochib berish zarurati saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jinoyat va jazoga doir xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarni o‘rganish, ularni amaliyotga joriy qilish tizimini yaratishga alohida ahamiyat berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur soha muayyan darajada liberallashtirilib, jazo tayinlashda asosiy e‘tibor tarbiyalash, jazolashning axloqiy jihatlariga e‘tiborni kuchaytirish vazifalariga qaratilmoqda. Chunki, “insonni faqat jazolash bilan, faqat repressiv usullar bilan tarbiyalab bo‘lmaydi. Buni hayotning o‘zi ko‘p bor isbotlagan. Insonni tarbiyalash uchun butun jamiyat harakat qilishi, avvalambor, jinoiy holatlarni tug‘diradigan sabab va omillarni hayotimizdan bartaraf etishimiz kerak”¹. Jinoyatchilikning ijtimoiy-ruhiy omillarini o‘rganish, shaxsning jinoyatga ta‘sirini aniqlashmadaniy me‘yorlarni mustahkamlash, jinoyat va jazoning

¹ Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: O‘zbekiston, 2021. -Б.107. (464)

ma'naviy-madaniy ahamiyatini anglashga doir ishlar jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgustdagi PQ-3200-son "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda, ayniqsa, yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga doir nutq va asarlari mazkur ilmiy tadqiqot uchun nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, jazo mexanizmlarining ijtimoiy tartibotni saqlashdagi ahamiyati, jazolash shakllari, ijtimoiy-axloqiy jazoning samaradorligi masalalari qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Aflotun, Aristotel va Epikur qarashlarida namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik, mazkur muammoga islom falsafasi nuqtai nazaridan yondashgan fiqhiy va kalom falsafasi mutafakkirlarining qarashlarida keng va atroflicha tadqiq etilgan. Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, bu jarayonda axloqiy va huquqiy jazolar mavjudligining sharqona ko'rinishlari bo'lgan ijtimoiy-diniy qadriyatlarga asoslangan jazolanishning ahamiyati to'risidagi fikrlarni Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Xaldun, Burhoniddin Marg'inoniy va boshqa fiqh namoyondalarining asarlarida uchratish mumkin.

Ijtimoiy adolatni va tartibli jamiyatni qurish, taqiqlangan ijtimoiy munosabatlarga kirishmaslik, namunali fuqaro bo'lish va tartib-qoidalarga amal qiladigan, halol va pok hayot kechirishga yangicha yondashuv Yangi davr falsafasida, chunonchi, R.Dekart, B.Spinoza, I.Kant, F.Gegel, I.Fixte, A.Shopengauer, V.Shelling, A.Bergson kabi faylasuflar ijodiga borib taqaladi.

Xorijiy mamlakatlarda olimlardan tomonidan jazo va inson qadr-qimmatini masalalari, tomonidan jinoyatchi shaxs psixologiyasi, jinoyatchining axloqiylik

o'Ichovlari hamda jazoni ijro etish muassasalarida inson qadri masalalari Andrew Coyle, Alison Liebling, Mario Cateri²lar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida jinoyat huquqi va jazo tayinlash masalalari, ijtimoiy munosabatlarda jazoga bo'lgan munosabatning sotsiologik tahlili, jazoning ijtimoiy mohiyati, jazoning falsafiy asoslari, jinoyat va jazo ahloqiy-falsafiy muammo sifatida tadqiq etishga doir tadqiqotlar I.Andenes, M. A. Medvedeva, A. V. Shidlovskiy, S. V. Solomatin, Yu. Chufarovskiy³ tomonidan jinoyat va jazo amaliyotining psixologik jihatlarini o'rganilgan.

Jinoyat qonunini liberallashtirish masalalariga oid ilmiy ishlar, jinoyatga jazo tayinlash tizimini takomillashtirish masalalari, tarixiy taraqqiyot jarayonida jinoyat va jazo masalalarining o'zgarib borish tendensiyalari, o'lim jazosi va unga nisbatan munosabatning tarixiy o'zgarishiga doir ilmiy ishlanmalar, jinoyatchi shaxs psixologiyasining ijtimoiy jihatlarini M.Usmonaliyev, M.Muqimova, R.Ikramov, B.Saparov, A.Saparov M.Uttemuratov, Q.Payzullaev, N.Salayev, B.Bobokeldiyev R.Dushanov⁴ lar ilmiy izlanishlarida ko'rinadi.

Biroq jinoyat va jazo tushunchalari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar turli fanlar doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, jinoyat va jazo amaliyotiga doir xalqaro va milliy huquqiy tajribalar falsafa fanlari doirasida tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot ishida jinoyat va jazo amaliyotiga doir xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ilk bor tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-1-345-son "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati (2018–2022)" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat va jazoga bo'yicha xalqaro va milliy huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

² Andrew Coyle. "Prisons and human dignity: are they compatible?" A paper delivered at the 6th worldwide conference of the International Prison Chaplains' Association, Stockholm, 2010-yil 21-avgust. – B. 8; Alison Liebling, "Moral performance, inhuman and degrading treatment and prison pain", Punishment and Society 13, 2011. – B. 533; Mario Caterini. The Presumption of Innocence in Europe: Developments in Substantive Criminal Law. <https://www.scirp.org/journal/paperinformation?paperid=74986>

³ Анденес И. Наказание и предупреждение преступлений. Москва: Прогресс, 1979. – 263 с.; Медведева М. А. Социальная сущность наказания. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. Новосибирск – 2010.; Шидловский А. В. Философские основы учения о природе наказания. Журнал Белорусского государственного университета. Право ретвенного университета. Право. 2020;1:87–94.; Соломатин С. В. Наказание как проблема нравственно-правовой философии. Автореферат на соискание ученой степени кандидата философских наук. Воронеж – 2014. –С.20.; Чуфаровский Ю.В. Психология оперативно-розыскной и следственной деятельности. – Москва: 2004. – С. 142.

⁴ Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2010. – Б. 18.; Муқимова М.З. Суд-ҳуқуқ ислохотлари ва жиноят қонунини либераллаштириш масалалари. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2009. – Б. 13; Утемуратов М. Давлат ва ҳуқуқ тарихида жиноят ва жазо масалалари. Ўқув қўлланма. – Нукус: ҚДУ, 2020. – Б. 14.; Пайзуллаев Қ.П., Салаев Н.С., Бобокелдиев Б.А. Ўлим жазоси: ўтмишда, ҳозирда ва келажакда. – Тошкент: "Тугон иқбол", 2005. – Б. 26; Душанов Р.Х. Жиноятчи шахс психологияси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИБ академияси. 2011. – Б. 5-7.

jazoning “axloqan tuzatish”ga qaratilganligi va jinoyatning axloqiylik tamoyillari ijtimoiy-falsafiy mazmuni va dialektik xususiyatlarini ochib berish;

zo‘ravonlikni jinoyat sifatida baholanishining ijtimoiy va huquqiy asoslari va xalqaro tajribalarning tadrijiy takomillashuvi ijtimoiy-axloqiy jihatlarini yoritib berish;

jazoni ijro etishda inson qadr-qimmatini saqlash asosida insoniylik va adolat ustuvorligini taminlashning ijtimoiy ahamiyatini ochib berish;

aybsizlik ehtimolligining axloqiy mohiyati asosida insonning yomonligi aniqlanmagunga qadar yaxshi odam hisoblanishining ijtimoiy-axloqiy asoslarini aks ettirish;

jinoyatchilikka doir qarashlarni tizimlashtirish orqali jamiyatda madaniy me‘yorlar va ahloqiy tamoyillarni jinoyatchilikni oldini olishdagi ijtimoiy ahamiyatini ochib berish;

bugungi kunda jinoyatchilik romantizmini mazmun-mohiyatini asoslash hamda jamiyatda xavfsizlikni ta‘minlash, jinoyatchilikni kamaytirish va inson huquqlarini himoya qilishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida jinoyat va jazoga oid xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari olingan.

Tadqiqotning predmetini jinoyat va jazoga bo‘yicha xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tahlil qilish metodologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda an‘anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional, ijtimoiy so‘rovnoma, kuzatuv, umumiylik, alohidalik va xususiylk kabi ilmiy usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

globallashuv sharoitida zamonaviy jazo amaliyotining uch (ijtimoiy adolatni tiklash, yangi jinoyatni oldini olish, mahkumni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash) stimuli jinoiy istakning shaxsiy manfaatga qaratilgan (motiv, maqsad, miqdor) mezonlari, jinoyatchida ijtimoiy ijobiy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojning yo‘qligi uning asosiy xususiyati ekanligi falsafiy ochib berilgan;

jamiyatda jinoyatchilik dinamikasidagi paradigmal o‘zgarishlarini baholanishning huquqiy asoslari va xalqaro tajribalarning tadrijiy takomillashuvi, amaliyotda tenglik, odillik, insonparvarlik va qonuniylk prinsiplari jinoyat va jazo motivlarining ijtimoiy-axloqiy jihatlarini belgilovchi determinant ekanligi aniqlangan;

zamonaviy o‘zbek jamiyatida jinoyatchilikni ijtimoiy determinasiyalash jamiyatda ikki (ijtimoiy-tirologik, ijtimoiy-rol) yondashuvni birlashtirib, shaxsda ijtimoiy qadriyatlar va me‘yorlarni tan olmaslikka qaratilgan kriminogen xususiyatlar amaldagi qonunlarga zid majburiyatlarni keltirib chiqarishi falsafaning sabab va oqibat usuli orqali ochib berilgan;

jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy qadriyatlardan begonalashish xodisasi jinoyatga moyil shaxsda ruhiy dekompensatsiyalar (yolg‘onga asoslagan ruhiy muvozanatdan foydalanish) asosida o‘zining jinoiy xulqini tashqi vaziyatlar va boshqa xatti-harakatlaridan axtarishi mantiqiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinoyat va jazoning huquqiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadqiq etilgan va nazariy asoslari tizimlashtirilgan;

jinoyat va jazo bo'yicha xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning o'zaro ta'sirlashuvi va sintezlashuvining ijtimoiy ahamiyati yoritilgan;

jinoyat va jazo bo'yicha xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlariga doir o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro va respublika miqyosdagi OAK ro'yxatiga kirgan ilmiy jurnal va konferensiyalarda maqola va ma'ruza shaklidagi muhokamasi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalar hamda umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan falsafiy tadqiqotlarda boshlang'ich manba sifatida foydalanish mumkinligi, shuningdek, jinoyatning axloqiylik tamoyillari ijtimoiy-falsafiy mazmuni va dialektik xususiyatlarini ochib berilganligi, jazoni ijro etishda inson qadr-qimmatini saqlash asosida insoniylik va adolat ustuvorligini taminlashning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda jinoyat va jazoning huquqiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadqiq etilgan va nazariy asoslari tizimlashtirilganligi, jinoyat va jazo bo'yicha xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning o'zaro ta'sirlashuvi va sintezlashuvining ijtimoiy ahamiyati yoritilganligi, jinoyat va jazo bo'yicha xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlariga doir o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyat va jazoga oid xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

globalashuv sharoitida zamonaviy jazo amaliyotining uch (ijtimoiy adolatni tiklash, yangi jinoyatni oldini olish, mahkumni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash) stimuli jinoiy istakning shaxsiy manfaatlar bilan bo'g'liq motiv, maqsad, miqdor kabi mezonlariga doir taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 2021-yil 5-noyabrdagi 199-son bayoni bilan tasdiqlangan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Nizomida belgilangan "mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini amalga oshirish"ga qaratilgan targ'ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqishda foydalanildi (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 19-oktabrdagi 393-son ma'lumotnomasi) Natijada, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir tadbirlari, targ'ibot ishlari va jazoni ijro etishda inson qadr-qimmatini, xavfsizlik va tartib masalalarining to'qnashuvi (xavfsizlik uchun qadr-qimmatni kamsitish) ni monitoring qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

jamiyatda jinoyatchilik dinamikasidagi paradigmal o'zgarishlarini baholanishning huquqiy asoslari va xalqaro tajribalarning tadrijiy takomillashuviga oid xulosa va tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" DMning 2022-2024-yillardagi jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatida, jinoyatchilikka qarshi-kurashga doir ko'rsatuvlarni, xususan, "millat va ma'naviyat", "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 19-iyuldagi 04-36-864-son dalolatnomasi) Natijada, tenglik, odillik, insonparvarlik va qonuniylik prinsiplari jamiyatda jinoyat va jazo motivlarining ijtimoiy-axloqiy jihatlarinig ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati, jinoyatchilikka qarshi kurashga doir dasturlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

zamonaviy o'zbek jamiyatida jinoyatchilikni ijtimoiy determinasiyalash jamiyatda ikki (ijtimoiy-tirologik, ijtimoiy-rol) yondashuvni birlashtirish, shaxsda ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni tan olmaslikka qaratilgan kriminogen xususiyatlar amaldagi qonunlarga zid majburiyatlarni keltirib chiqarishiga doir ilmiy yangiliklaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 2021-yil 5-noyabrdagi 199-son bayoni bilan tasdiqlangan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Nizomida belgilangan "mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini amalga oshirish"ga qaratilgan targ'ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish foydalanildi (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 19-oktabrdagi 393-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir tadbirlari va targ'ibot ishlarining nazariy asoslari rivojlantirishga, amaliyotida tenglik, odillik, insonparvarlik va qonuniylik prinsiplari jamiyatda jinoyat va jazo motivlarining ijtimoiy-axloqiy jihatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy qadriyatlardan begonalashish xodisasi jinoyatga moyil shaxsda ruhiy dekomrensatsiyalar (yolg'onga asoslagan ruhiy muvozanatdan foydalanish) asosida o'zining jinoiy xulqini tashqi vaziyatlar va boshqa xatti-harakatlaridan axtarishiga oid ilmiy yangilik va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170928696-raqamli "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning kontseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yilning 17-oktabrdagi 04/11-6676-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar, jinoyat va jazoning huquqiy va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish va nazariy asoslarini tizimlashtirish, jinoyat va jazo bo'yicha xalqaro va milliy-huquqiy tajribalarning o'zaro ta'sirlashuvi va sintezlashuvining ijtimoiy ahamiyati, uning mezonlarini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAKsining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning asosiy qismi 136 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Jinoyat va jazo: xalqaro va milliy huquqiy tajribalarning falsafiy jihatlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida jinoyat va jazo tushunchalarining axloqiy-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyati, jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual qonunchiligini tubdan takomillashtirilishining ijtimoiy-falsafiy zarurati o'rganilgan. Jazolash bilan qo'rqitib, jinoyat qonunida ta'qiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni (harakat yoki harakatsizlikni aybli sodir etish jinoyat deb topiladi).

Jinoyat - insonning ongli faoliyati, alohida kishining ongli qonun bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishidir. Kishining huquqqa xilof qilmishi faol harakat yoki harakatsizlikda ifodalanishi mumkin. Insonning har bir harakati yoki harakatsizligi uning ongi bilan boshqarilgan bo'lishi kerak. Ana shundagina uning ijtimoiy xavfli qilmishi jinoyat hisoblanadi. Jinoyat – axloqiylik tamoyillari asosida tarkib topgan huquqiy talablar, qonun-qoidalar ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatida ushbu me'yorlarga mensimasdan munosabatda bo'lish oqibatida shaxsiy manfaatlar ustunligi hamda o'zgarlar haq-huquqlarini buzish natijasida sodir etilgan hodisa hisoblanadi.

Falsafiy kategoriya sifatida jinoyat tushunchasi kishilarning muayyan nopok maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi amaliy xatti-harakatlari majmuasini aks ettiradi. Bashariyat taraqqiyoti davomida jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi ezgu muddaolarni maqsad qilib olgan hodisalar qatori unga zid ravishda, ba'zan jinoyat turkumiga kiruvchi hodisalar ham sodir etilib keladi. Bu hodisalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmaydi, balki uni tanazzulga yetaklaydi. Shu bois jamiyat a'zolari hamda turli ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlar tomonidan jinoyat hodisasi qoralanib keladi va unga qarshi kurash olib boriladi. Bu yo'lda dastavval jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablar va motivlarni aniqlash muhim. Zero, har qanday jinoyat, avvalo, ijtimoiy hodisa sifatida tasodifan ro'y bermaydi. Hattoki, ba'zan ehtiyotsizlik oqibatida tasodifan ro'y bergan jinoyat deya talqin etiladigan hodisa ham, aslida muayyan ijtimoiy ildizlarga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun bu hodisaning shart-sharoitlarga bog‘liq sabablarini aniqlamasdan, unga qarshi kurash ko‘zlangan samarani bermaydi. Faqat shundan so‘nggina turli usul va vositalar yordamida unga qarshi kurashish lozim bo‘ladi. Agar jinoyatga qarshi kurash olib borilmasa, bir jinoyatning ikkinchi jinoyatni keltirib chiqarishi xavfi ortib boradi. Bu esa, jamiyat hayotida jinoyatchilik deb atalmish hodisaning ildiz otishiga olib keladi. Bu holda jamiyatning ma‘naviy hayotiga katta putur yetadi. Jinoyatchilik tufayli davlat va jamiyatga katta moddiy va ma‘naviy zarar yetishi, kishilarning tinch-osoyishta turmushi izdan chiqishi, davlat boshqaruvidagi barqarorlik o‘rniga beqaror tartibsizliklar ro‘y berishi mumkin. Binobarin, jinoyat amaldagi axloqiy, ma‘naviy, huquqiy tamoyillar hukmron bo‘lgan jamiyat hayotiga yot hodisadir.

Jinoyat shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham, davlat uchun ham xavflidir. Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi qonun bilan qo‘riqlanayotgan ob‘yektning jinoyat-huquqiy himoya qilinishining ahamiyati orqali aniqlanadi. Jazo – sud hukmi bilan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan va sudlanuvchini ozodlikdan mahrum qiluvchi yoki uning huquq va erkinliklarini cheklovchi majburlov chorasidir. Insoniyat tarixida jinoyat degan salbiy ijtimoiy hodisaga qarshi doimo keskin kurash olib borilgan. Bu muammo O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ham muhim vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash ishida jinoiy jazo choralaridan ham keng foydalaniladi. Jinoiy jazo davlatda jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vositasi emas, o‘tish davrida jinoyatchilikka qarshi kurashning o‘tkir quroli sifatida foydalanilishi mumkin.

Professor H.Homidiy fikricha, jinoyatlarni shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin: dinga qarshi jinoyatlar: g‘ayridin bilan nikohga kirishish, kohinni haqoratlash, mansabini suiste‘mol qilish kabilar; shaxsga qarshi jinoyatlar: hujum, tahdid solish, homilani tushirish, ayolga homiladorlik paytida shikast yetkazish; hayvonlarga, uy hayvonlariga, xususan, turli xildagi itlarga qarshi jinoyatlar; mulkiy jinoyatlar: o‘g‘rilik, qaroqchilik, paymonshikonlik, talon-taroj, bosqinchilik; axloqiy jinoyatlar: fohishabozlik, zo‘rlash, er-xotinlarning xiyonati, qasddan oila qurmay yurish, nikoh qoidalarini buzish, zino, xiyonat; tabiatga qarshi jinoyat: yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzish, yerning meliorativ holatiga qaramaslik, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidasini, jamoat va shaxsiy gigiyenani buzmoq, bog‘-rog‘, rezavorga zarar yetkazmoq, suvni isrof qilmoq, betartib butazor yaratmoq, daraxt o‘tqazmoq⁵. Demak, jinoyatning bunday turlanishi uning har qanday ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan ishlatilishini, uning ijtimoiy ta’siri yuqori bo‘lishini anglatadi.

Jinoyat va jazoning tarixiy shakllanish jarayoni, turli davlatlarda namoyon bo‘lishi va ularga nisbatan yechim sifatida keltirilgan choralarning ahamiyati, umuman olganda, ijtimoiy tafakkur taraqqiyotida insoniyatning jinoyatga va jazoga nisbatan munosabati qanday bo‘lganligini ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qadimgi Misrda davlat sirlarini oshkor qilish og‘ir jinoyat bo‘lib, bu jinoyatni sodir etgan aybdor shaxslarning tili kesib tashlangan. Shuningdek,

⁵Хомидий Х. Авестодан Шоҳномага. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б. 106.

qalbaki narsalarni yasash va tayyorlash ham jinoyat hisoblanib, aybdorlarning qo‘li chopilgan. Hayratlanarli jihati, qalbaki muhrlar, pullar yasaganlarning chap va o‘ng qo‘llari, soxta tosh-tarozilardan foydalangan kishining esa tana a‘zolaridan biri kesilgan.

Qadimgi Mesopotamiya davlatida birovni odam o‘ldirishda yolg‘ondan ayblovchilarga va yolg‘on ko‘rsatma berish oqibatida biror bir kishi uchun o‘limga mahkum etilish xavfini tug‘dirgan shaxslarga o‘lim jazosi tayinlangan. Agar shifokor ehtiyotsizlik natijasida bemorni o‘ldirib qo‘ysa, uning qo‘li kesilgan.

Qadimgi Hindistonda davlat va ijtimoiy tuzumga qarshi har qanday suiqasd qilgan kishi o‘lim jazosiga hukm qilingan. O‘z davlatini yoki qishlog‘ini qattiq ovoz chiqarib so‘kkan kishiga eng yuqori jarima jazosi tayinlangan. Shuningdek, Braxmanni o‘ldirish eng og‘ir jinoyat hisoblangan. Ammo braxman odam o‘ldirish jinoyatini sodir etgan bo‘lsa, unga o‘lim jazosi hukm qilinmagan va u mamlakatdan quvib yuborilgan. Birinchi marta o‘g‘rilik qilgan kishining ikkita barmog‘i, ikkinchi marta o‘g‘rilik qilgan kishining qo‘li va oyog‘i kesilgan. Uchinchi marta o‘g‘rilik qilgan kishi o‘lim jazosiga hukm qilingan.

Insonni axloqan tuzatish g‘oyasi Konfutsiy tomonidan shu qadar chuqur va mukammal ta‘riflab berilganki, uning fikrlari mazkur masalaning keyingi barcha ishlovlarida muayyan darajada o‘z ifodasini topgan. Konfutsiyning fikricha, inson axloqini, binobarin, uning shaxsini tuzatishning uch yo‘li mavjud. Birinchi yo‘l eng yaxshi yo‘l bo‘lib, u inson axloqini tafakkur orqali tuzatishni nazarda tutadi. Bunda shaxs o‘z harakatlariga tanqidiy ko‘z bilan qaraydi va ularni tuzatish yo‘llarini belgilaydi. Ikkinchi yo‘l: boshqa odamlarning xulq-atvoriga taqlid qilish orqali axloqan tuzatishni nazarda tutadi. Nihoyat, uchinchi yo‘l: eng og‘ir va mashaqqatli yo‘l bo‘lib, u odamni jazolash orqali axloqan tuzatishni nazarda tutadi. Bunda odam va uning axloqi sirdan aralashish orqali, ya‘ni majburlov yordamida tuzatiladi.

Qadimgi Yunoniston davlatida biror kishiga qasddan tan jarohati yetkazgan kishining mol-mulki musodara qilinib, u mamlakatdan haydab yuborilgan. Qasddan odam o‘ldirish, davlatga xiyonat, xudosizlik kabi jinoyatlar uchun o‘lim jazosi berilgan. Agar o‘g‘ri jinoyat sodir etgan joyida qo‘lga olingan bo‘lsa, u qamoq jazosiga hukm qilingan, kechasi o‘g‘rilik qilgan shaxsga o‘lim jazosi tayinlangan⁶. Demak, davlatchilik rivojlanishi jarayonida jinoyat turlari va ularga beriladigan jazolar ham shakllanib, o‘zgarib borgan.

Tarixan huquqiy munosabatlar vujudga kelishi bilan “talion prinsipi” paydo bo‘lgan. U jazo jinoyatga teng bo‘lishi kerak degan g‘oyani ilgari surgan. Ushbu prinsip omma ongida Qadimgi Ahd kitobidan olingan “Qonga qon, jonga jon» iborasi tarzida muhrlangan. Ibtido kitobida bu fikr umumiy tarzda ifodalangan: “Kimki inson qonini to‘ksa, uning qoni inson qo‘li bilan to‘kilajak, dedi Xudovand”. Bu amalda odam o‘ldirish uchun o‘lim jazosining ma‘qullanishini anglatadi. To‘g‘ri, ko‘pgina xalqlarda “xun haqi” degan tushuncha ham amal qilgan⁷. Bu o‘ldirilgan odam uchun jon bilan emas, balki pul yoki unga teng

⁶ <https://aniq.uz/yangiliklar/> Qadimgi dunyo davlatlarida jinoyat va jazo

⁷ Утемурагов М. Давлат ва ҳуқуқ тарихида жиноят ва жазо масалалари. Ўқув қўлланма. – Нукус: ҚДУ, 2020. – Б. 14.

miqdorda mol bilan haq to'lash mumkinligini anglatgan. Demak, qadimgi davlatlarning jinoyat qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, biz ularning deyarli barchasida ibtidoiy jamoa tuzumining aksariyat qoldiqlari saqlanib qolganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ta'kidlaganimizdek, ularda hali qasos olish odatining izlari saqlanib qolgan edi. Xususan, qadimgi davlatlarning jazo tizimida jamoaviy javobgarlik, "qonga qon, jonga jon" tamoyili, sud yuritish ishlarida ordaliya –sinab ko'rish qoidasi amal qilgan. Bu o'rinda shuni ham alohida uqtirib o'tish lozimki, qadimgi davlatlarda qo'llanilgan jazolarning asosiy maqsadi qo'rqitish bo'lgan.

Qadimgi Xitoyda jinoyat tushunchasi inson jinoiy irodasining namoyon bo'lishi bilan bog'liq edi. Huquqbuzar shaxsga "pastkash inson" sifatida qaralgan. Uning "pastkashligi" shu bilan belgilanganki, u o'zining halokatli, jinoiy irodasi bilan o'zi yashab turgan, o'zi taalluqli bo'lgan ijtimoiy guruhdagi, jamiyatsidagi, tabiatdagi uyg'unlikni, tartibni va hatto sodir etgan jinoyati xarakteriga qarab butun dunyoni buzib yuborishi mumkin, deb hisoblangan⁸. Bundan tashqari, Qadimgi Xitoy jazo tizimida qo'llanilgan jazolar o'zining o'ta shafqatsizligi bilan ajralib turadi.

Musulmon huquqida –shariatda jinoyat tushunchasining asosini diniy g'oyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquqiy qonun-qoidalar tashkil etadi. Binobarin, "Hidoya" asarida jinoyat deb, qonun tilida – shaxsga va mulkka qarshi qaratilgan qonun bilan taqiqlangan qilmish tushuniladi, deb ko'rsatiladi.

Musulmon jinoyat huquqi bo'yicha jazolarning xilma-xil turlari nazarda tutilgan. O'rta asrlardagi musulmon huquqshunoslari barcha jinoyatlarni uch guruhga ajratadilar. Birinchi guruhga bevosita Muhammad payg'ambarning ko'rsatmalaridan kelib chiqadigan jinoyatlar kiritiladi. Ular "Allohning huquqlari»ga tajovuz qiladigan jinoyatlar sifatida talqin qilingan va afv etilmagan. Bunga birinchi navbatda islomdan qaytish jinoyati kiritilgan. Buning uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan. Boshqarish tartibotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar – isyon va davlat hokimiyatiga qarshilik ko'rsatish kabi jinoyatlar ham og'ir jazolangan. Og'ir diniy gunoh deb e'lon qilingan ushbu guruh jinoyatlarga yana o'g'rilik, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, zinokorlik, shuningdek, zinokorlikda ayblab tuhmat qilish kabilar ham kirgan.

Dissertatsiyaning «**Jinoyatga jazoni insonparvarlashtirish asosida inson qadrini yuksaltirish masalalari**» deb nomlangan ikkinchi bobi jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari, korrupsiyaga oid qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bo'yicha xalqaro standartlar va xorijiy tajribaning qiyosiy-huquqiy tahlili hamda zo'ravonlikni jinoyat sifatida baholash va unga jazoni muqarrarlashtirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili tadqiq etilgan.

Inson xulqi murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni o'rganishda tizimli yondashuv va ehtimolda tutilgan jarayonlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarga ega bo'lish talab qilinadi. Har bir axloqiy hodisaning mohiyati uning shaxs xulqining umumiy tuzilishidagi o'rni bilan bog'liq. Individual rivojlanish jarayonida axloqiy

⁸ Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи. 1-қисм. – Тошкент: Адолат, 1999. – Б. 176.

tizimlar individual axloqiy strategiyaning murakkab majmuiga aylanadi va shaxsning axloqiy tipini hosil qiladi.

Jinoyatchilarning ayrim xudbinona intilishlari g'ayriijtimoiy tus olganda ularning axloqiy tizimini ong osti mayllari darajasida boshqaradi. Yaqin o'tmishda bo'lgan freydizmning asossiz tanqid qilinishi bizda «ong osti» tushunchasiga salbiy munosabatni yuzaga keltirdi. Hozirgi ilmiy psixologiya «ong osti omilini» «o'z» o'rniga qaytardi. Biroq «ong osti omilining taqiqlanganligi» fikri hali hukmronlik qilishda davom etmoqda. Biroq, ushbu cheklangan konsepsiya asosida shaxsning aksariyat vaziyat va impulslar bilan bog'liq harakatlarining ma'nosi va g'ayriqonuniy mohiyatini tushunib bo'lmaydi. Garchi ushbu harakatlar mexanizmini ifodalash uchun soxta ilmiy surrogat – «motivsiz jinoyat» tushunchasi o'ylab topilgan bo'lsa-da, bu vaziyatdan chiqish yo'li emas, chunki sababsiz hodisalar sodir bo'lmaydi⁹.

«Jinoiy ruhiyat» ham, «jinoiy vorisiylik» ham mavjud emas. Ayni vaqtda ruhiyat ham, uning tabiiy shart-sharoitlari ham har qanday axloqiy aktga, jumladan g'ayriqonuniy harakatlarga «daxldordir». Ijtimoiy qarashlari qat'iy bo'lmagan insonda hatto uning tabiiy mayllari ham g'ayriijtimoiy axloq shakllarida, ya'ni jinsiy instinkt – nomusga tegishda; faol mudofaa refleksi – shaxsga tajovuz qilishda; o'zini saqlash instinkti – dezertirlikda namoyon bo'lishi mumkin.

Qonunga itoat qiladigan va o'zini o'zi yuksak darajada boshqara oladigan halol inson uchun «jinoiy» vaziyatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Vaziyat o'z-o'zicha jinoyatni keltirib chiqara olmaydi, u faqat g'ayriijtimoiy fe'lga ega bo'lgan shaxsning muayyan qarashlari va maqsadlarini amalga oshirishi uchun mos bo'lishi mumkin, xolos. Har bir insonda ijobiy xulq mavjud bo'lib, bu xulq anglangan bo'lsa hamda qarorni erkin, to'g'ri qabul qilsa, vaziyatning quliga aylanmaydi, albatta. Biroq, inson xulqining ruhiy boshqaruv darajasi qanchalik past bo'lsa, uning xulqida vaziyat bilan bog'liq holatlar shunchalik katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ko'pchilik jinoyatchilarga, haqiqatan ham, xulqining vaziyat bilan bog'liqligi xos bo'lib, bu uning fe'lga xos jihatdir. Inson o'zi uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan narsa, hodisa sababligina faol harakat qiladi. Qadriyatlar tizimi individual bo'lib, u insonning ruhiy faolligini belgilab beradi: bir kishi uchun hayotiy muhim bo'lgan narsa, boshqa shaxs uchun unchalik muhim bo'lmashligi mumkin. Jinoyatchining xulqi ham qadriyatlar asosida yo'nalgan. Ammo jinoyatchining qadriyatlari buzilgan, ular ijtimoiy qadriyatlarning umum e'tirof etgan tizimga mos kelmaydi. Ba'zi odamlar notanish insonni o'lim xavfidan o'ylab o'tirmay qutqaradilar, boshqalar esa o'ylab o'tirmay pichoqni qarindoshiga sanchadilar – hammasi u yoki bu odamlar uchun hayotning qaysi tomonlari muhim ekanligiga bog'liq.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida o'lim jazosini bekor qilish, uni jinoiy jazo sifatida jazo tizimidan butunlay chiqarib tashlash masalasi ancha keng muhokama qilinmoqda. Ma'lumki, jinoiy jazo qasos olish uchun qo'llanmaydi, balki aksincha, u muayyan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Jinoiy jazo, birinchidan,

⁹ Чуфаровский Ю. В. Психология оперативно-розыскной и следственной деятельности. – Москва, 2004. – С. 142.

ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etuvchi shaxslarni jazoga tortadi, ikkinchidan, jazoni o'tayotgan shaxsni jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning ongli va faol ishtirokchisiga aylantirish maqsadini ko'zlaydi, uchinchidan, ijtimoiy xavfli qilmishlarning qonunga muvofiq muayyan jazolar tayinlash bilan bog'liq jinoiy qilmishlar deb topilishi hamda mazkur jazolarning amalda qo'llanilishi ma'naviy va axloqiy jihatdan beqaror shaxslarga ijobiy, ya'ni ular tomonidan huquqiy-tartibot talablariga rioya etilishi yo'nalishida ta'sir ko'rsatishini nazarda tutadi.

Hozirda o'lim jazosiga munosabat anchayin o'zgarib bormoqda. Ilgari ushbu jazo juda keng tatbiq etilgan, yangi-yangi jinoyatlarga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, hozirda buning aksi. Uning tarafdorlari soni kamayib bormoqda. Zero, inson hayoti qimmatining e'tirof etilishi mazkur jazo turiga boshqacha nazar tashlashga majbur qilmoqda. O'limni jazo turi sifatida qo'llashga qarshilar o'lim jazosi jinoyatchilikni to'xtatishga va jamiyatning ma'naviy negizlarini mustahkamlashga qodir emasligiga insoniyat o'z tajribasida iqrar bo'lmoqda. Aslida, o'lim jazosining bor yoki yo'qligi jinoyatchilik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Chezare Bekkaria fikricha, «jinoyatchilikning oldini olishda jazoning shavqatsizligi emas, balki uning muqarrarligi ko'proq ahamiyatga ega»¹⁰. Bu aksioma ayni haqiqatdir. Qolaversa, o'lim jazosi haqida gapirganda uning nafaqat huquqiy tomonini, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatlarini ham e'tiborga olish lozim.

O'lim jazosi tarafdorlari qarashlarining ostida qasos olish hissi yotadi. Hissiyotga berilgan bunday shaxslarning vajlari asosan «jonga – jon, qonga – qon» qadimiy odat qoidalaridagi vahshiyona o'ch olish istagi bilan bog'liq. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bunday hissiyotlarning manbasi sivilizatsiyadan oldingi davrga borib taqaladi. Dastlabki ibtidoiy jamoa davrida odamlar o'rtasida qasos olish odati paydo bo'lgan bo'lsa, oila institutining paydo bo'lishi ushbu funktsiyaning oilaga o'tishiga olib keldi. Keyinchalik ilk davlat paydo bo'lgan davrlarda o'lim jazosi faqat davlat tomonidan qo'llana boshlandi. Afsuski, o'sha vaqtda ham «jonga – jon, qonga – qon» odatlari hali-hamon saqlanib qolgan edi.

Ozodlikdan mahrum etish joylarida inson qadr-qimmati va adolatni ta'minlashga qaraganda xavfsizlik va tartib masalalari dolzarflik kasb etadi. Haddan tashqari va tizimli xavfsizlik choralari mahbuslarning inson qadr-qimmati kamsitilishiga, masalan, ularning zaruratsiz harakatlanishga, shaxsiy ashyolardan foydalanishga, qandaydir faoliyatga cheklovlar joriy etilishi yoki doimiy shaxsiy ko'rikdan o'tkazilishiga, nomutanosib yoki uzoq muddatda yolg'iz o'zini qamab qo'yishni qo'llashga olib kelishi mumkin. Individual darajada ko'rsatilgan xavfsizlik choralari barcha narsalar ruxsat etilgani chegaradan chiqmaydi, ammo natijada shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalada bo'lishga tenglashishi mumkin.

Qadr-qimmat har bir kishiga tug'ilishdan e'tiboran tegishli hamda qadriyatlar va insonning hurmat qilinishi va insoniy muomalada bo'lishga doir huquqiga asoslangan. Xalqaro paktlarda mustahkamlab qo'yilganidek, ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslar inson shaxsiga taalluqli insoniy muomalada

¹⁰ <https://www.xabar.uz/huquq/zamonaviy-davlatda-olim//Zamonaviy davlatda o'lim jazosiga o'rin yo'q.>

bo'lish va qadr-qimmat hurmat qilinishi huquqiga ega. BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi inson qadr-qimmatini hurmat qilish umumiy xalqaro huquq normasi hisoblanadi.

Jazoni ijro etishda shafqatsiz va inson qadr-qimmatini tahqirlovchi tartib-qoidalarini ayblanuvchini qadr-qimmatini kamsitadi. Demak, jazoning insonparvar bo'lishi, insonparvarlik mezonlariga asos bo'lishi jazoni ijro etish joylarida ham namoyon bo'lishi talab etiladi. Inson qadr-qimmatiga doir huquq boshqalar qatorida kamsitishga yo'l qo'yilmaydigan, o'zaro hurmat munosabatlari rag'batlantiradigan adolatli qoida va tartib-taomillarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Odamlar nimani kamsitadigan yoki haqoratlaydigan narsa hisoblashiga qarab, salbiy munosabat, axloq, ommaviy fosh etish yoki haqoratlovchi iboralar teng darajada inson qadr-qimmatini kamsitadi.

Dissertatsiyaning «**Jinoyat va jazo bo'yicha xalqaro tajribalarda zo'ravonlik va aybsizlik ehtimolligiga munosabatni o'zgarib borishi istiqbollari**» deb nomlangan uchinchi bobida yoshlar jinoyatchiligi va uning oldini olishning ijtimoiy-huquqiy asoslari va zo'ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikning oldini olishning ijtimoiy-falsafiy tahlili tadqiq etilgan.

Bugungi kunda hududlarda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jinoyatlarning sodir etilishi sabablari, shaxsda g'ayriijtimoiy xulq-atvor va xususiyatlarning shakllanishiga hamda turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklar sodir etilishiga, qonunga yoki qonun ijrosiga putur yetkazadigan, unga rioya qilishga to'sqinlik qiladigan omillar oiladagi muhit ta'sirida yuzaga keladi. Zero, har qanday huquqbuzarlikning kelib chiqishida oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, har qanday huquqbuzarlik va salbiy illatlarning tomiri oilada shakllanadi. Oila shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ma'naviy va axloqiy tarbiyalash, shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'zini tutish kabi insoniy xususiyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning 40 foizi, har to'rtta qotillikning bittasi, qasddan badanga shikast yetkazishlarning har beshtadan bittasi, haqorat qilish va tuhmatning sakkiztadan bittasi aynan oila-turmush sohasida sodir etilmoqda.

Zo'ravonlikni jinoyat sifatida baholash zarurligining sabablaridan biri jabrlanuvchilar o'zlariga yetkazilgan zararni normal hayot deb tushinishi, oilasining siri ovoza bo'lib ketmasligi yoki oila buzilib ketmasligi, ota-onasi yoxud turmush o'rtog'ining obro'sini to'kmaslik uchun hech qayerga murojaat qilmasliklari sifatida baholash mumkin.


